



Toshkent viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-aprel dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI**
- IV. METAMA'LUMOTLAR**
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR**


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 8 705 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 194 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 8 511 tani tashkil qildi.


2025- yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 11 618,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 110,3 % ga teng bo'ldi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 626,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 9,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 9 992,1 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 10,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 080,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 10,8 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
(ulushi foizda)



II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI




2025- yil 1- may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 847 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 70 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 777 tani tashkil qildi.

Toshkent viloyati bo'yicha 2025- yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 15 763,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 12,0 % ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 12 707,0 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 7,8 % ga to'g'ri keldi. Toshkent viloyatining jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 80,6 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'ati Bo'stonliq (117,4 %), Zangiota (116,3 %) va Qibray (113,2 %) tumanlari hamda Olmaliq (112,5 %) shahrida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 622 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 14 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 608 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-aprel oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 4 169,3 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 11,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 77,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

Chop etishga masul:
Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi

Ijrochi: M.Mirzokirov
Tel: +998712034500 (4541)

Manzil: Toshkent shahar
Mirobod tumani Yangi Qo'yliq
ko'chasi, 2-uy